

**“AXBOROT TEXNOLOGIYALARI”
fanidan
DASTUR**

Tuzuvchilar: dots. A.T. Kenjaboev,

dots. B. Sultonov,
k.o'qit. A. Ro'ziev.

Taqrizchilar: prof. A. Qobulov,
Prof. M. Irmatov

O'quv fanining maqsad va vazifalari magistrantlarni avtomatlashtirilgan axborotlar tizimi sharoitida ishlaydigan «Axborot texnologiyalari» (AT) bilan tanishtirishdan iboratdir. Ushbu kurs magistrantlarning «Moliya», «Bank ishi», «Buxgalteriya hisobi va audit» ta'lim yo'nalishlarini o'rganish davrida olgan bilimlariga asoslanib, yuqoridagi masalalarni kompleks echish texnologiyasi yordamida iqtisodiy axborotni qayta ishlashning zamonaviy usullaridan foydalanish malakasini shakllantiradi.

Цель и задача учебного предмета состоит в ознакомлении магистрантов с информационной технологией, работающей в условиях автоматизированной информационной системы. Данный курс основывается на знании магистрантов по предметам “Фнансы”, “Налоги и налогообложения”, “Банковский дело”, «Бухгалтерский учет и аудит». Комплексное решение вышеуказанных вопросов осуществляется на основе использования совершенных методов обработки информации, с помощью компьютеров последнего поколения.

The purpose & function of the subject is to meet the students with “Information technology” with automatic information system. This course is the information of the knowledges of students during the students “Analizis”, Finansing credit, tax”, “Financing the projects”. It's necassarey to use the modern methods of rewo thing the economical information in the deciding these problems.

This program is devoted for the course named by “Information technology”. There are the purpose & function; the demands for the tests of the students knowledges; relations with other subjects; new technologies for the teaching of the subjects; the test of the students knowledges; lessons for the practise & recommendations to organize the programm of worketing stude on the fifth part of the programm.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan (25 aprel 2002 yil 9 - sonli bayonnoma)

I. SO'Z BOSHI

O'qitishdan ko'zlangan maqsad va vazifalar

Kursning asosiy maqsad va vazifasi magistrantlarni bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarida axborot texnologiyalari bilan tanishtirish, iqtisodiyot sohalarida ishlatilayotgan dasturlar paketini amaliyotda qo'llay olishni o'rgatishdir.

Kursda Word, Excel, Access, KOMFAR, 1S va 1N kabi standart dasturlar bilan birgalikda turli sohalarda qo'llaniladigan dasturlar vositasida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, bank, audit, kredit, soliq va moliya masalalarini avtomatlashtirilgan holda echish va ularni tahlil qilish uslublariga asosiy e'tibor berish bilan birga, axborot texnologiyalari va uni ta'minlovchi quyi qismlarining mohiyati, axborot tizimlarini tarkib toptirish uslubiyati beriladi.

Kursni o'qitish jarayonida magistrantlar turli xildagi kompyuter dasturlaridan iqtisodiy sohalarda foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganadilar.

Fan bo'yicha magistrantlarning bilimiga, uquviga va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar

Kursda mutaxassisliklar bo'yicha o'tiladigan - buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, bank, audit, kredit, soliq va moliya masalalarini avtomatlashtirilgan holda echishni tashkil qilish uslubiyotiga asosiy e'tibor beriladi.

Kursni o'rganish davomida magistrantlar axborot texnologiyalaridan foydalanish, hamda unda nazariy va amaliy masalalarini echish asosiy tamoyillarini, masalalarni echishda avtomatlashtirilishi lozim bo'lgan sohani, masala qo'yilishini amalga oshirishi, echish algoritmini tuzish, hamda kompyuterlarning turli modellarida masalalar echish texnologiyasini bilishi lozim.

O'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi

Ushbu kurs magistrantlarning "Moliyaviy tahlil - 2", "Davlat soliqlari va yig'implari", "Moliya matematikasi", "Davlat investitsiya siyosati", "Moliya strategiyasi", "Amaliy audit", "Sug'urta biznesi", "Moliyaviy hisob - 2", "Investitsion tahlil", "Banklarda hisob va to'lov tizimi", "Xalqaro valyuta operatsiyalari va hisob - kitoblari" fanlarini o'rganish davrida olgan bilimlariga asoslanadi. Bunda magistrantlar o'z bilimlarini xo'jalik faoliyatini hisob va tahlil qilish masalalarini kompleks echish, iqtisodiy axborotlarga ishlov berishning zamonaviy usullarini joriy qilish tamoyillari va ulardan foydalanish asoslari doirasida boyitadilar.

Fanni o'qitish semestrlari va uslubiy tavsiyalar

Fan magistraturaning barcha mutaxassisliklarida 1 - kurs davomida o'qitiladi. Uning mazmunini yoritish ma'ruza, laboratoriya, mustaqil ishlar doirasida olib boriladi.

Fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar

Fanni o'qitishda kompyuterlarning oxirgi avlodlari, INTERNET tarmoq tizimi, yangi telekommunikatsiya tizimlaridan va standart dasturlardan (KOMFAR, AIJ Statistika, 1N, 1S, ODB Bank) foydalaniladi. Serverlarga joylashtirilgan rasmiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'zlar va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi. Ayrim mavzular bo'yicha magistrantlar bilimni baholash test asosida kompyuter yordamida bajariladi. Masofaviy o'qitishning E - saboq va E - Larning tizimlari to'la tushintiriladi.

Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha soatlar hajmi

Mazkur kursni o'qitishga 80 soat ajratilgan bo'lib, buning 44 soati ma'ruza va 26 soati laboratoriya va 10 soati amaliy mashg'ulotlardan iborat.

Ish dasturini tuzishga doir uslubiy tavsiyalar

Mazkur fan bo'yicha o'quv dasturini tayyorlashda quyidagilarga e'tibor berilishi kerak:

Dasturda ko'rsatilgan majburiy mavzular albatta ishchi dasturiga kiritilishi kerak;

Ma'ruza va laboratoriya mashg'ulotlarining mavzulari dastur asosida tuzilgan bo'lsa ham, undagi mavzular ketma ketligi o'zgarishi mumkin, hamda ayrim majburiy bo'lmagan mavzular mustaqil ta'limga o'tkazilishi e'tibordan holi emas;

Dasturdagi mustaqil ta'lim mavzulari ishchi dasturda ham ko'rsatilishi lozim;

Ishchi o'quv dasturi har yili tuziladi. Shuning uchun undagi mavzular yangi mavzular bilan to'ldirib boriladi, adabiyot ro'yxatlari, informatsion texnik vositalar ro'yxati yil sayin o'zgarib boradi.

2. FAN DASTURI

Axborot texnologiyalari fanining predmeti va vazifalari

Zamonaviy axborot texnologiyalari. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining tarkibi va tuzilishi. Funktsional va ta'minlovchi quyi tizimlar, maqsadlar va axborot texnologiyalarini (AT) loyihalash masalalari. Iqtisodiy amaliyotda avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarini (AAT) joriy etish bosqichlari va istiqbollari.

Axborotlashtirish infrastrukturasi rivojlantirish asoslari. Zamonaviy avtomatlashtirilgan axborot tizimlari

Jamiyatni axborotlashtirish tushunchalari. *Axborotlashtirishni rivojlantirishda iqtisodiy boshqarish.* Axborotlashtirishni strategik rivojlantirish infrastrukturasi. *Axborot mahsulotlari va xizmat ko'rsatish bozori.*

Avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarini loyihalashtirish

AATni loyihalashtirish bosqichlari va darajalari. Loyihalashtirish oldi bosqichi. *Texnik topshiriq va texnik - iqtisodiy hujjatlar.* Texnikaviy loyihaning hujjatlari. Ishchi loyiha va uning hujjatlari. Texnik ishchi loyihalashtirish. *Buyurtmachi va loyihachi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni amalga oshirish.*

Iqtisodiy tizimning axborot modeli

Iqtisodiy tizim (maqsad, quyi tizimlar, elementlar). *Axborot va ma'lumotlar. Iqtisodiy tizimning axborot modeli (ITAM).* ITAMning xususiyatlari – nisbiylik, alohidalik, butunlik, tejamkorlik, integrallashuvchanlik, moslashuvchanlik.

Iqtisodiy boshqarish tizimlarida avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalari (AAT)

AAT tushunchalari. AATning ta'rifi va tavsifi. AATni ishlab chiqarish va joriy etish. AATni qo'llash va foydalanish. Zamonaviy AATdan boshqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarda foydalanish. Moliya, bank va sug'urta tashkilotlarida avtomatlashtirilgan iqtisodiy axborot tizimi tarkibida AATning o'rni va ahamiyati.

Ma'lumotlarni qayta ishlashda dasturiy - texnik axborot vositalarini optimallashtirish va tizim modullari. AATning texnik va texnologik ahamiyati. AAT parametrlarini sozlash va oxirgi foydalanuvchilar talablariga moslashish imkoniyatlari.

Moliya tashkilotlarida (MT) AATdan foydalanish

MTda AATni joriy etishning asosiy tamoyillari. Hisoblash vositalarining arxitekturasi. MTda hisoblash vositalarining xususiyatlari. MTda hisoblash texnikalaridan yuqori darajada samarali foydalanishga doir davlat dasturi. Telekommunikatsiya vositalari: elektron jadvallar, MBBT va hisobotlar. Bir

nechta foydalanuvchining bir vaqtda ishlash imkoniyati. MT va moliyaviy hisob - kitoblarda avtomatlashtirilgan tizimning tarkibi hamda amaliy dasturlar ta'minoti. Funktsional quyi tizimlarning ketma - ketligi. Masalalar tarkibi va ularni EHMda qo'llanishining texnologik ta'minoti. *Tashqi aloqalar (axborotlar oqimi). Bog'lanish kanallari va telekommunikatsiyalar.*

Moliya - kredit tashkilotlarida (MKT) AAT ishlab chiqishning asosiy tamoyillari

Moliya, bank, soliq va sug'urta tashkilotlarida AAT tuzilmasi. *Ma'lumotlar ustida amal bajarish texnologik jarayonining uslubiy tashkil qilinishda iqtisodiy axborot tizimlari bazasining funktsional qism bilan o'zaro bog'liqligi. AAT resurslari. AATni dasturiy texnik majmualari. AATni axborot ta'minoti (so'rovnomalar, til vositalari, «mijoz - shartnoma hisob raqami» doirasidagi tizimni parametrlash, hisobotlar va xulosa, arxivlash va ma'lumotlar omborida saqlash).* AATdan foydalanishda tashkiliy - huquqiy jihatlarni moliya - kredit tashkilotlari bilan o'zaro bog'lanish sifatleri.

Moliya - kredit tashkilotlarida AATni asoslash va tanlash usullari. Moliya - kredit tashkilotlarida AATni tanlash chegaralari. Operatsiyalarni avtomatlashtirishga tizimli yondoshuv.

Moliya - kredit tashkilotlarida (MKT) foydalaniladigan AATdan foydalanish samaradorligini oshirish

AAT ilmiy - texnik darajalari tushunchasi. Moliya - kredit tashkilotlarining tahlili va uning tarkibiy bo'linmalari. *AATni samaradorligini baholash chegaralari.* MKTni asosiy faoliyatidagi (tijorat maqsadida) natijalari bilan AAT o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. *Natijalar tahlilini solishtirish uslubleri.*

Banklarda AATlarni joriy etishning asosiy tamoyillari. *Hisoblash vositalarining arxitekturasi.* Tijorat banklarida telekommunikatsiya vositalari. *Texnologiya elementleri, bir vaqtda bir nechta foydalanuvchining ishlash imkoniyatlari.* Tijorat banklarida multimedia. *Tijorat banklarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimining funktsional tuzilishi va amaliy dasturiy ta'minoti.* Funktsional quyi tizimlar ketma - ketligi. *Tashqi aloqalar (axborotlar oqimi). Telekommunikatsiyalar va bog'lanish kanallari.* Lokal tarmoqlar unumdorligini oshirish, bank tarmoqlariga masofadan kirish va axborotlarni himoyalash.

Turli iqtisodiy tizimlar boshqaruvida AATlardan foydalanish

Nodavlat nafaqa jamg'armalarida, birja faoliyatida, korxonalar va tashkilotlarda AATni joriy etishning asosiy tamoyillari. Undagi hisoblash

vositalarining xususiyatlari. Ma'lumotlar bazasi telekommunikatsiya vositalari va ularning davlat telekommunikatsiya tarmoqlariga moslanuvchanligi. Ularning texnologik elementlari: elektron jadvallar, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) va hisobotlar, tizimlarda amaliy dasturlar paketini qo'llanishiga doir misollar.

Chakana elektron bank xizmatlari

Bankning avtomat kassirlari, bankomatlar. Kredit kartochkalar. *Savdo o'rinlarida hisob - kitob tizimining elektron tuzilmasi. Video tizimlardan foydalanish, bank xizmatlarini ko'rsatish.* Chakana bank xizmatlari: tartibga solishning me'yoriy va huquqiy masalalari, konfidentsiallik va moliyaviy tadbirlarning xavfsizligi, marketing muammolari va iqtisodiy yo'nalishlari.

Ulgurji elektron bank tizimlari

Avtomatlashtirilgan hisob palatalari (chet el tajribasi), kassada naqd hisob - kitoblarni boshqarish. *Milliy bank tarmoqlari: hisob - kitoblar va xizmatlar turlarini tashkil etish. SWIFT xalqaro tarmog'i: afzalligi, xizmat turlari, tashkiliy tuzilmasi.*

Moliyaviy elektron tizimlarni rivojlantirishning hozirgi holati va istiqboli

Funksional dasturiy ta'minot sohasida yangi dasturlar. *Hujjatlarga qayta ishlov berish elektron tizimi va korporativ tarmoqlarni rivojlantirish.* Elektron tijorat va uning elementlari.

3. LABORATORIYA VA AMALIY MASHG'ULOTLARI MAVZULARI

3.1. Laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari

Axborotlashtirish infrastrukturasi rivojlantirish asoslari. Zamonaviy avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalari

Jamiyatni axborotlashtirish tushunchalari. Axborotlashtirishni rivojlantirishda iqtisodiy boshqarish. Axborotlashtirishni strategik rivojlantirishning infrastrukturasi*. Axborot mahsulotlari va xizmat ko'rsatish bozori.

Avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarini loyihalashtirish

AATni loyihalashtirish bosqichlari va darajalari*. Loyihalashtirish oldi bosqichi. Texnik topshiriq va texnik - iqtisodiy hujjatlar. Texnikaviy loyihaning hujjatlari.

Ishchi loyiha va uning hujjatlari. Texnik ishchi loyihalashtirish. Buyurtmachi va loyihachi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni amaga oshirish.

Iqtisodiy tizimning axborot modeli

Iqtisodiy tizim (maqsad, quyi tizimlar, elementlar). Axborot va ma'lumotlar. Iqtisodiy tizimning axborot modeli (ITAM)*. ITAMning xususiyatlari – nisbiylik, alohidalik, butunlik, tejamkorlik, integrallashuvchanlik, moslashuvchanlik.

Iqtisodiy boshqarish tizimlarida avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalari

AAT tushunchalari. AATning ta'rifi va tavsifi. AATni ishlab chiqarish va joriy etish*. AATni qo'llash va foydalanish. Zamonaviy AATdan boshqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarda foydalanish*. Moliya, bank va sug'urta tashkilotlarida avtomatlashtirilgan iqtisodiy axborot tizimi tuzilmalarida AATning o'rnini va ahamiyati. Sug'urtachi AIJ, Moliyachi AIJ, Bank AIJ.

Ma'lumotlarni qayta ishlashda dasturiy - texnik axborot vositalarini optimallashtirish va tizim modullari*. AATning texnik va texnologik ahamiyati. AAT parametrlarini sozlash va oxirgi foydalanuvchi talablariga moslashish imkoniyatlari*.

Moliya tashkilotlarida (MT) AATdan foydalanish

MTda AATni joriy etishning asosiy tamoyillari. Hisoblash vositalari arxitekturasi*. MTda hisoblash vositalarining xususiyatlari. MTda hisoblash texnikalaridan yuqori darajada samarali foydalanishga doir davlat dasturi. Telekommunikatsiya vositalari: elektron jadvallar, MBBT va hisobotlar. Bir nechta foydalanuvchining bir vaqtda ishlash imkoniyati*.

MT va moliyaviy hisob - kitoblarda avtomatlashtirilgan tizimning tarkibi hamda amaliy dasturlar ta'minoti. Funktsional quyi tizimlar ketma - ketligi. Masalalar tarkibi va ularni EHMda qo'llanishining texnologik ta'minoti*. Tashqi aloqalar (axborotlar oqimi). Bog'lanish kanallari va telekommunikatsiyalar*.

Moliya - kredit tashkilotlarida (MKT) AAT ishlab chiqishning asosiy tamoyillari

Moliya, bank, soliq va sug'urta tashkilotlaridagi AAT tuzilmasi*. Ma'lumotlar ustida amal bajarish texnologik jarayonini uslubiy tashkil qilinishining iqtisodiy axborot tizimlari bazasi funktsional qismi bilan o'zaro bog'liqligi. AAT resurslari. AATni dasturiy texnik majmualari*. AATni axborot ta'minoti (so'rovnomalar, til vositalari, «mijoz - shartnoma hisob raqami» doirasidagi tizimni parametrlash, hisobotlar, xulosa, arxivlash va ma'lumot omborida saqlash). «ODB Bank» dasturida masala echish.

AATdan foydalanish tashkiliy - huquqiy jihatlarini har qanday moliya - kredit tashkilotlari bilan o'zaro bog'lanish shartlari*. Moliya - kredit tashkilotlarida AATni asoslash va tanlash usullari. Moliya - kredit tashkilotlarida AATni tanlash

chegaralari*. Operatsiyalarni avtomatlashtirishni tashkillashtirishda tizimli yondoshuv.

Moliya - kredit tashkilotlarida (MKT) AATdan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari

AAT ilmiy - texnik darajalari tushunchasi. Moliya - kredit tashkilotlarining tahlili va uning tarkibiy bo'linmalari. AATni samaradorligini baholash chegaralari*. MKTni asosiy faoliyatidagi (tijorat maqsadida) natijalari bilan AAT o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik*. Natijalar tahlilini solishtirish uslublari.

Banklarda AATlarni joriy etishning asosiy tamoyillari. Hisoblash vositalari arxitekturasi*. Tijorat banklarida telekommunikatsiya vositalari. Texnologiya elementlari, bir vaqtda bir nechta foydalanuvchining ishlash imkoniyatlari. Tijorat banklarida multimedia*. Tijorat banklaridagi avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimining funktsional tuzilishi va amaliy dasturiy ta'minoti. Funktsional quyi tizimlar ketma - ketligi. Tashqi aloqalar (axborotlar oqimi). Telekommunikatsiyalar va bog'lanish kanallari*. Lokal tarmoqlar unumdorligini oshirish, bank tarmoqlariga masofadan kirish, axborotlarni himoyalash.

Turli iqtisodiy tizimlarni boshqarishda AATdan foydalanish

Nodavlat nafaqa jamg'armalarida, birja faoliyatida, korxonalar va tashkilotlarda AATni joriy etishning asosiy tamoyillari va ulardagi hisoblash vositalarining xususiyatlari*.

Ma'lumotlar bazasidagi telekommunikatsiya vositalari va ularning davlat telekommunikatsiya tarmoqlariga moslanuvchanligi*. Ularning texnologik elementlari: elektron jadvallar, MBBT va hisobotlar, bu tizimlarda amaliy dasturlar paketini qo'llanishiga doir misollar.

Chakana elektron bank xizmatlari

Bankning avtomat kassirlari, bankomatlar. Kredit kartochkalar. Savdo o'rinlarida hisob - kitob tizimini elektron tuzilmasi. Videotizimlardan foydalanib, bank xizmatlarini ko'rsatish.

Chakana bank xizmatlari: tartibga solishning me'yoriy va huquqiy masalalari, konfidentsiallik va moliyaviy tadbirlarning xavfsizligi, marketing muammolari va iqtisodiy yo'nalishlari*.

Ulgurji elektron bank tizimlari

Avtomatlashtirilgan hisob palatalari (chet el tajribasi), kassada naqd hisob - kitoblarni boshqarish*. Milliy bank tarmoqlari: hisob - kitoblar va xizmatlari turlarini tashkil etish. SWIFT xalqaro tarmog'i: afzalligi, xizmat turlari, tashkiliy tuzilmasi.

Moliyaviy elektron tizimlarni rivojlantirishning hozirgi holati va istiqboli

Funksional dasturiy ta'minot sohasida yangi ishlanmalar. Hujjatlarni qayta ishlash elektron tizimi va korporativ tarmoqlarni rivojlantirish*.

3.2. Amaliy mashg'ulotlar mavzulari

Iqtisodiy tizimning axborot ta'minoti

KOMFAR standart dasturi yordamida iqtisodiy axborotlarni shakllantirish va ular yordamida masala qo'yib echish. PER paketi yordamida iqtisodiy masalalar echimini amalga oshirish. Modellar bilan ishlash.

Moliya tashkilotlarida AAT dan foydalanish

Moliyaviy tashkilotlarda joriy qilingan 1N: va 1S: standart dasturlarda shartli ma'lumotlar asosida Moliyachi AIJda masalalar echish.

Moliya - kredit tashkilotlarida AATdan foydalanish samaradorligini oshirish

Bank muassasalarida joriy qilingan AIJ dasturlarida shartli ma'lumotlar asosida jarayonlar bajarish. "ODB Bank" tizimida amaliy ishlash.

Elektron bank xizmatlari

Jahon amaliyotida qo'llaniladigan bankomatlar. Hozirgi kunda mamlakatimizda qo'llanilayotgan bankomat turlari va ularni amaliyotga qo'llash. SWIFT tarmog'i yordamida hisob - kitoblarni amalga oshirish.

Jahon tarmoqlari orqali moliyaviy operatsiyalar

Lokal, global va xalqaro tarmoqlarda ishlash. telekonferentsiyalar tashkil qilish, Internet tijorat va undan sohalarga oid axborotlarni olish.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA - NAMOIYISH DASTURIY TA'MINOT VA BOSHQA DIDAKTIK MATERIALLAR RO'YXATI

Ko'rgazmali - namoyish materiallar ro'yxati

Ushbu fanni magistrantlar tomonidan to'liq va puxta o'zlashtirilishi uchun quyida ko'rsatilgan texnik va dasturiy vositalar hamda zamonaviy o'quv - metodik materiallaridan foydalanish kerak bo'ladi:

1. O'rganilayotgan dasturiy ta'minot asosiy oynalari aks ettirilgan plakat, albom va jadvallar;
2. Dasturda o'rganilishi va ishlatilishi ko'zda tutiladigan zamonaviy kompyuter dasturlarining asosiy ko'rsatgichlari haqidagi ma'lumotlar;
3. O'rganilayotgan mavzular bo'yicha tayyorlanilgan slaydlar hamda har bir fakultet uchun kamida 2 tadan proektorlar hamda ularga tegishli bo'lgan kerakli materiallar;
4. Elektron ma'ruza matnlari hamda ularga tegishli texnikaviy va dasturiy resurslar;
5. INTERNET axborot almashinish tarmog'iga ulanish va unda ishlash qoidalari;
6. Informatsion - uslubiy ta'minot bo'limida ko'rsatilgan adabiyotlardan asosiylari yoki ularning nusxalari albatta o'quv muassasasining kutubxonasida mavjud bo'lishi kerak.

O'quv filmlari ro'yxati

1. Informatsionnie texnologii, videokurs lektsiy, M., 2001.
2. Izuchaem EXCEL, videokurs prakticheskix zanyatiy, USA, 1998.

Informatsion texnik vositalar

1. PentiumIII, IV rusumidagi kompyuterlar, HDD 20GB, ram 128Mb, CDROM.
2. INTERNET tarmog'i.
3. Elektron pochta.
4. Telekommunikatsion vositalar (uyali telefonlar, turli xildagi uzatish qurilmalari).

Didaktik materiallar ro'yxati

1. Interaktiv ta'lim usullari, T., XTV, 2002.
2. Samarali ta'lim usullari, T., TMI, 2003.

Multimedia ilovalari

1. Shkolniy kurs informatiki. - M.: Viva, 2000.
2. Obshaya informatika. - SPb.: Piter, 2001.
3. Spetsialnaya informatika. – SPb.: Piter, 2001.
4. Izuchaem Internet, - SPb.: Viva, 2001.

5. Demonstratsionnie programmi po izucheniye prikladnix programm Windows 2000, programmnoe obespechenie.
6. E –Saboqva E –Learning masofaviy o’qitish dasturi.

5. O’ZLASH TIRISH NAZORATI

“Axborot texnologiyalari” fanini o’qitishga 44 soat ma’ruza uchun, laboratoriya mashg’ulotlariga 26 soat, seminar mashg’ulotlariga 10 soat ajratilgan. Shundan:

- - birinchi yarim yillikda 22 soat ma’ruza, 12 soat laboratoriya va 6 soat seminar mashg’ulotga;
- - ikkinchi yarim yillikda 22 soat ma’ruza, 14 soat laboratoriya va 4 soat seminar mashg’ulotiga taqsimlangan.
- Magistrantlarni “Axborot texnologiyalari” fani bo’yicha o’zlashtirishini baholash quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:
 - - Joriy baholash (JB).
 - - Oraliq baholash (OB).
 - - Yakuniy baholash (YaB).

Fan bo’yicha JBda magistrantning to’plashi mumkin bo’lgan maksimal reyting ballining miqdori o’quv rejasida laboratoriya mashg’ulotlariga ajratilgan soatlarning 70%ni tashkil qiladi, ya’ni $18 \cdot 0,70 = 12,6$.

Fanning OB turida magistrantning to’plashi mumkin bo’lgan maksimal reyting ballning miqdori o’quv rejasida ma’ruza mashg’ulotiga ajratilgan auditoriya soatining 70% miqdorida belgilanadi, ya’ni $22 \cdot 0,70 = 15,4$.

YaB bo’yicha magistrant to’plashi mumkin bo’lgan maksimal reyting ballning miqdori o’quv rejasida jami mashg’ulotning 30%i miqdorida belgilanadi, ya’ni $40 \cdot 0,30 = 12,0$.

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1999.
2. Karimov I.A.. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1998.
3. Karimov I.A.. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5 - t. - T.: O'zbekiston, 1997.
4. Abdullaev R.A., Abdulkarimov V.I., Ibragimov N.A. Iqtisodiy axborotlarni qayta ishlashning avtomatlashtirilgan tizimlari. - T.: O'qituvchi, 1999.
5. Avtomatizirovannie informatsionnie texnologii v ekonomike: Uchebnik. Pod red. prof. G.A. Titorenko. - M.: Kompyuter, 1998.
6. Alyoxina G.V. Informatsionnie texnologii v ekonomike i upravlenii. - M.: Finansi i statistika, 2002.
7. Alimov R.X. va boshq. Axborotlarni qayta ishlashning kompyuter texnologiyasi. - T.: TDIU, 1999.
8. Anfilatov V.S., Emelyanov A.A., Kukushkina A.A. Sistemniy analiz v upravlenii. - M.: Finansi i statistika, 2002.
9. Avtomatizirovannie sistemi obrabotki finansovo - kreditnoy informatsii Pod red. prof. B.C. Rojnova. - M.: Finansi i statistika, 1990.
10. Andreev A.G. i dr. Novie texnologii: Windows - 2000 /Pod red. Chekmarova A.I. –SPb.: Piter, 1999.
11. Begalov B. va boshq. Texnologiya protsessov formirovaniya informatsionno - kommunikatsionnogo rinka. – T.: TDIU, 2000.
12. Virt N. Algoritmi i strukturi dannix: Per. s angl. 2 - e izd., ispr. – SPb.: Nevskiy dialekt, 2001.
13. Gulyamov S.S., Shibarshova L.I., Abdullaev A.X. Vnedrenie novix informatsionnix texnologiy i distantsionnogo obucheniya v obrazovatelnie uchrejdeniya Uzbekistana. T.: TDIU, 2002.
14. Gasparian M.S., Lixachyova G.N., Grigorev S.V., Bojko V.P. Primenenie informatsionnix texnologiy v ekonomike/Uch. - met. Posobie. –M.: Finansi i statistika, 2000.
15. Informatika. Pod. red. prof. Makarovoy N.V. - M.: Finansi i statistika, 1997.
16. Kenjaboev A.T. Zamonaviy axborot texnologiyalari. - T.: TDIU, 1999.
17. Kenjaboev O.T., Ro'ziev A.O. EXCEL 7.0 imkoniyatlari/O'quv qo'llanma. – T.: TMI, 2003.
18. Kenjaboev O.T., Ro'ziev A.O. va boshqalar. «Informatsion texnologiyalar» va «Iqtisodiy matematik usullar va modellashtirish» fanlaridan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tish uchun uslubiy qo'llanma. –T.: TMI, 2003.

19. Levin Yu. Samouchitel Word 2000. - SPb.: Piter, 2002.
20. Titorenko G.A. Avtomatizirovannye informatsionnye texnologii v bankovskiy deyatelnosti. –M.: Kompyuter, 1997.
21. G'ulomov S.S. va boshq. Axborot tizimlari va texnologiyalari. - T.: O'qituvchi, 2000.
22. Olifer V.G., Olifer N.A. Kompyuternie seti. Printsipi, texnologii, protokoli. - SPb.: Piter, 2001.
23. Odintsov B.E. Proektirovaniya ekonomicheskix ekspertnix sistem. – M.: Kompyuter YuNITI, 1996.
24. Robinson S. Microsoft Access - 2000./Uchebniy kurs. - SPb.: Piter, 2002.
25. Rudakova O.S., Rudakova I.V. Bankovskie elektronnie uslugi. Praktikum: Uch. pos. dlya vuzov. - M.: YuNITI DANA, 2000.
26. Spivak V.A. Sovremennye biznes kommunikatsii. – M.: Finansi i statistika, 2002.
27. Qobulov A.V. Bank, moliya axborotlarini qayta ishlashni avtomatlashtirish sistemasi. – T.: TMI, 1995.
28. Xolmagorov V. Osnovi Web - mastera. Uchebniy kurs. - SPb.: Piter, 2002.
29. Shafrin Yu. Osnovi kompyuternoy informatsionnoy texnologii. - M.: Finansi i statistika, 1999.

Qo'shimcha adabiyotlar

30. Altenxyovel M. Word 7 dlya Windows 95. Pervoe znakomstvo - Per. s nem. - M.: INFRA, 1999.
31. Vasilkov Yu.V., Vasilkova N.N.. Kompyuternie texnologii vichisleniy v matematicheskom modelirovanii. – M.: Finansi i statistika, 1999.
32. Gavrilova T. A., Xoroshevskiy V.F. bazi znaniy intellektualnix sistem Spb.: Piter, 2001.
33. Djekson Piter. Vvedenie v ekspertnie sistemi./Per. s angl. Uch. posobie. - M.: Vilyams, 2001.
34. Deyt K. Vvedenie v sistemi baz dannix. 7 - e izd./Per. s angl. - M.: Vilyams, 2001.
35. Dodj M., Kinata K., Stinson K. Effektivnaya rabota s Exsel 7.0 dlya Windows 95. – SPb.: Piter Press, 1997.
36. Dolgolaptev V.G. Rabota v Exsel 7.0 dlya Windows 95 na primerax. - M.: Binom, 1995.
37. Informatika. Bazoviy kurs. Pod red. Simonovicha S.V. – M.: SPb.: 2000.
38. Kozlov V.E. Teoriya i praktika borbi s kompyuternoy prestupnostyu. - M.: Goryachaya liniya – Telekom, 2002.

39. Windows - 95. Sekreti i soveti. Per. s nemetskogo - M.: Vostochnaya knijnaya kompaniya, 1996.
40. Kreynak Dj., Xobreyken Dj. Internet. Entsiklopediya. – SPb.: Piter, 1998.
41. Karlberg K. Exsel dlya Windows v voprosax i otvetax. – S.Pb.: Piter, 1995.
42. Kuritskiy. Poisk optimalnix resheniy sredstvami Exsel 7.0. - S.Pb.: Piter, 1997.
43. Levin V.I. Nositeli informatsii v tsifrovom veke/Pod obshch. red. D.G. Kraskovskogo. –M: Kompyuter Press, 2002.
44. Modernizatsiya i obslujivanie PK. Bazoviy kurs: Per. s angl. Shevelya D.M. - M.: Korona - Print, 2000.
45. Nikol N., Albrect R. Elektronnie tablitsi Excel 5.0 dlya kvalifitsirovannix polzovateley: Per, s nemetskogo. - M.: Finansii statistika, 1995.
46. Pikudze V., Gerashenko A. Samouchitel ekonomicheskix i finansovix raschetov v EXCEL. – S.P.: Piter, 2002.
47. Solomon K. Mikrosoft ofis 97: razrabotka prilozheniy/Per. s angl. – S.Pb.: Piter, 1998.
48. Modelirovanie texnologicheskix protsessov informatsionno - vichislitel'nogo obslujivaniya polzovateley v vichislitel'nix strukturax. - M.: Izd. Finansovoy akademii pri Pravitelstve RF, 1995.
49. Umnova E.A., Chistov D.V. Buxgalterskiy uchet na personalnoy EVM. - M.: IMA - Press, 1999.
50. The World Bank (<http://www.worldbank.org/>)
51. Organization of Economic Cooperation and Development (OECD) (<http://www.oecdwash.org/>)
52. Syllabus Magazine <http://www.syllabus.com/syllsub.html>